

AZIZ VA YAGONAMSAN, JONAJON O'ZBEKISTONIM!

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:36 (67201)
2018-yil 3-sentabr

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



**5-sentabr kuni
yurtimizdagi
barcha umumta'lim
maktablarida
yangi o'quv yili
boshlanadi.**

E'tirofga munosib ustoz

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligi munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular orasida fidoyi ustoz va murabbiylar ham bor. Jumladan, R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyining o'zbek xalq cholg'ulari bo'limi o'qituvchisi Habibulla aka Nurmatov «Shuhrat» medaliga sazovor bo'ldi. Bu quvonchli xabar ustoz va uning shogirdlari uchun qo'shaloq bayram hamda unutilmas voqeaga aylandi.

USHBU SONDA:

«TA'LIM TIZIMIDA
MUVAFFAQIYATGA
ERISHMOQCHI BO'LSAK,
BIRINCHI GALDA USTOZNI
HURMAT QILISHIMIZ
LOZIM!»

«WISE
SCHOOL» –
«AQLLI
MAKTAB»

**BIRINCHI
KUN**

2-bet

3-bet

6-bet



Sherzod SHERMATOV,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vaziri:

– Hurmatli Sherzod Xotamovich, sir emaski, xalq ta'limi tizimida uzoq yillardan buyon juda ko'p muammolar yig'ilib qolgan edi. Ayni paytda siz rahbarlik qilayotgan jamoa oldida sohadagi qanday muhim masalalarga yechim topish vazifasi turibdi?

– Eng birinchi navbatda, mavjud muammolarga to'g'ri tashxis qo'yish lozim. Shu bois, internet tarmog'i orqali aholining bu boradagi taklif va mulohazalarini o'rganish maqsadida so'rovnomalar o'tkazdik. E'tiborlisi, bugunga qadar yurtidoshlarimizdan 5000 taqdimot qabul bo'ldi. Ushbu raqamlardan ham bilsak bo'ladiki, tizimda yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p.

Tan olib aytish kerak, shu kungacha xalq ta'limi tizimiga e'tibor ikkinchi darajali masala bo'lib kelgan. Yaqinda Prezidentimiz Shayxontohur tumaniga tashrif buyurganlarida, hududdagi umumta'lim maktablarining achinarli holatini oynayi jahon orqali kuzatgan bo'lsangiz kerak. Endi viloyatlarimizdagi vaziyatni o'zingiz tasavvur qilavering.

Qolaversa, sohani yetuk va malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi ham oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Yaqinda moliya, diplomatiya, huquqshunoslik kabi yetakchi yo'nalishlardagi oliy o'quv yurtlari bilan pedagogika sohasiga ixtisoslashgan oliyog'larga hujjat topshirgan abituriyentlarning oxirgi uch yillikda to'plagan kirish ballarini o'rganib chiqdik. Bilasizmi, orada osmon bilan yerchalik farq bor. Ya'ni, pedagogika yo'nalishidagi mutaxassisliklarga kirish ballari juda past ekaniga guvoh bo'lindi. Eng kam ball to'plab, oliy o'quv yurtiga kirgan ana shu talaba ertaga farzandlarimizga ta'lim beradi. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifatiga, o'quvchilarning bilim olishiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi. To'g'ri, maktablarimizda fidoyi muallimlar, tajribali, malakali ustozlar bor, lekin ular safini yanada kengaytirishimiz kerak. Shuningdek, darsliklar, ta'lim maskanlarida ovqatlanish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ham hali ko'p ishlar qilishimiz lozim.

– Ta'kidlaganingizdek, keyingi paytlarda maktab darsliklari masalasi ko'p muhokamalarga sabab bo'ldi. Aytinch, bu borada qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Shu paytgacha maktab darsliklari bo'yicha eng oddiy vazifa – rejalashtirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, yil boshida necha nafar o'quvchi maktabga chiqishi, ularning necha nafari o'zbek, rus, qozoq yoki qirg'iz tiliga ixtisoslashgan maktabga o'qishga borishi bo'yicha aniqlangan statistik ma'lumot yil oxiridagi raqamlarga mutlaqo to'g'ri kelmagan. Bu esa o'z-o'zidan ushbu yo'nalishdagi boshqa ishlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, maktab darsligini yangilash uzoq vaqt talab qiladigan jarayon. Chunki maktab darsligidan avval davlat ta'lim standarti

So'nggi paytlarda barcha sohalarida bo'lgani kabi mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan sohadagi muammolarni chuqur o'rganish, ularni tizimli ravishda hal etish, o'qituvchilarning jamiyatdagi obro' va nufuzini oshirish, bu sharafti kasb egalari turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi.

Bugungi ana shunday keng ko'lamli o'zgarishlar davrida xalq ta'limi tizimidagi yangiliklarni bilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Xotamovich Shermatovga bir necha savollar bilan murojaat qildik.

«TA'LIM TIZIMIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHMOQCHI BO'LSAK, BIRINCHI GALDA USTOZNI HURMAT QILISHIMIZ LOZIM!»

o'zgarishi lozim. Avvalgi ta'lim standarti esa eskicha yondashuvlarga asoslangan edi. Ya'ni, o'quvchi eng asosiy ma'lumotni o'qituvchi yoki kitobdan olgan. Bugun-chi? Bugun o'quvchining axborot olish manbalari bisyor. Shunday ekan, 5–10 yil oldingi o'qituvchidan ko'ra bugungi ustozning zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklanadi. Aytmoqchimanki, endi ustoz faqat axborot manbaigina emas, o'quvchini ma'lumot olib, o'z ustida ishlashga yo'naltiradigan, to'g'ri qaror qabul qilishiga ko'maklashadigan rolga o'tishi lozim. Shu bois, darsliklar ham zamon va jahon talablariga mos bo'lishi zarur.

Bu ishlarni sifatli amalga oshirish uchun yaqinda YUNISEF xalqaro tashkiloti va boshqa donor hamkorlar bilan birgalikda ekspertlar guruhini shakllantirdik. Ushbu guruh ayni paytda nafaqat darsliklar, balki O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ustida ham ish olib bormoqda. Ekspertlarning asosiy vazifasi birinchi navbatda yurtimizdagi ta'lim standartini tahlil qilish, Yaponiya, Singapur, Koreya Respublikasi, AQSH kabi yetakchi davlatlarning ilg'or o'quv dasturlarini o'rganib chiqish va ana undan keyingina o'zimizning yangi ta'lim yo'nalishimizni belgilab olishdan iborat.

– Afsuski, bugun maktablarimizda «Dars – muqaddas» degan tushuncha biroq unutilganday, nazarimizda. Ustozning saboq jarayoniga halal berish, mashg'ulot paytida turli asossiz tekshiruvlar o'tkazish ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

– Darhaqiqat, maktablardagi asossiz tekshiruvlar o'qituvchilarning sifatli bilim berishiga, o'quvchilarning fanni chuqur o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, yuqorida ta'kidlaganimiz – Yaponiya va Koreyaning oliy maktablarida o'qituvchining darsiga qay yo'sinda bo'lmasin, xalal berishga hech kimning haqqi yo'q. Afsuski, bizda istalgan tekshiruvchi istalgan vaqtda ustozning darsiga xalaqit qilishi mumkin.

Toshkentdagi Inxa universitetida rektor bo'lib ishlagan paytimda oliyog'ga biror tekshiruvchi kelib qolsa, muallimning darsini o'z-o'zidan bo'lib kirolmas edim. Birinchi navbatda iltimos bo'lib, ustozdan ruxsat berishlarini so'rardim. Ijzat bersagina kirardim, bo'lmasa yo'q. Aytmoqchimanki, ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsak, birinchi galda ustozlarga hurmat ko'rsatishimiz va barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.

– Tizimga axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Yaqinda internet tarmog'ida stat.uzedu.uz nomli sayt tashkil qildik. Ushbu manzilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat dasturlari bo'yicha yurtimizda qurilayotgan maktablarimizning

haqiqiy holatidan boxabar bo'lish hamda ushbu yo'nalish bo'yicha aholining murojaatlarini qabul qilish yo'lga qo'yildi. Bu bilan tizimda jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Shuningdek, asta-sekin elektron jumallarga o'tishimiz lozim. Chunki darsda o'qituvchining asosiy vaqti davomat va o'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirishga ketib qoladi. Mana shu ikki sabab ortidan ko'plab ortiqcha hisobotlar kelib chiqadi. Agar o'qituvchi bu yumushlarni elektron tarzda olib boradigan bo'lsa, ham vaqtdan yutadi, ham ta'lim sifati ortadi. Qolaversa, o'quvchilar uchun elektron kundalik joriy qila olsak, ota-onalar farzandlarining o'sha kuni necha baho olgani, fanlarni qanday o'zlashtirib borayotgani, darsga qatnashgan yoki qatnashmaganligini internet orqali kuzatib borishlari mumkin bo'ladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa birinchi galda yurtimizdagi umumta'lim maktablari internet tarmog'iga ulanishi zarur. Albatta, mazkur jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi.

Yana bir gap. Farzandlarimizga faqatgina chevarchilik, temirchilik kabi an'anaviy kasb-hunarlarini o'rgatishga harakat qilamiz. Bu bilan o'sha hunarlar kerak emas, deyshib fikridan yiroqman. Shunchaki, bugungi shiddatkor zamonda o'zbek farzandlari zo'r kompyuter dasturchisi bo'lishi, kompyuter dizayni sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishi, yurt taraqqiyotiga xizmat qiladigan yirik ixtirolar qilishi mumkinligini aytmoqchiman, xolos. Agar biz bolalarimizni zamonaviy kasb-hunarlariga yo'naltira olsak, ular kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi.

– Bilamizki, siz AQSHning yetakchi universitetlaridan birida tahsil olgansiz. Shunday ekan, u yerdagi ta'lim jarayoni bilan ham yaqindan tanishsiz. Aytinch, okean orti mamlakatining bu sohadagi qaysi yutuqlarini yurtimiz ta'lim tizimiga joriy etishni istardingiz?

– Eng avvalo, amerikaliklardan o'qituvchilarga bo'lgan munosabatni o'rganishimiz lozim. Bilamiz, qadimda ota-bobalarimiz ustozlarga o'zgacha hurmat-e'tibor ko'rsatgan. Lekin, afsuski, oxirgi yillarda bu kasb egalari hurmatini o'z joyiga qo'ya olmadik. Ularning ijtimoiy himoyasiga e'tibor qaratmadik. Natijada, ushbu kasb o'z jozibadorligini yo'qotdi. Ta'lim tizimida erkak o'qituvchilar soni keskin kamayib ketdi. Shunday ekan, birinchi galda ustozlarni e'zozlashimiz zarur.

Qolaversa, ota-onalarimizni ta'limga bo'lgan munosabatini ham butkul o'zgartirish payti keldi, deb o'ylayman. Afsuski, ayrim oila kattalari erkatoz farzand uchun eng so'nggi rusumdagi uyali telefon olib berishga mablag' topadi-yu, bir dona kitob xarid qilishga kelganda pulini ayaydi. To'garak mashg'ulotlarining to'lovi qimmat ekanligidan noliydi. O'ylaymanki, ushbu yo'nalishda ham ishni to'g'ri tashkil qila olsak, katta muvaffaqiyatlarga erishamiz.

– Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat!
Sa'dullo TURSUNOV,
Nodira NAZAROVA suhbatlashdi

Bugun o'quvchi-ning axborot olish manbalari bisyor. Shunday ekan, 5–10 yil oldingi o'qituvchidan ko'ra bugungi ustozning zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklanadi.

Hozirgi shiddatkor zamonda o'zbek farzandlari zo'r dasturchi bo'lishi, kompyuter dizayni sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishi, yurt taraqqiyotiga xizmat qiladigan yirik ixtirolar qilishi mumkin.

«Kim ko'p kitob o'qiydi?» Respublika an'anaviy tanloviga

FAXRGA TO'LA YURT

Kitob mutolaa qilish, jahon hamda milliy adabiyotimizning eng sara asarlaridan bahramand bo'lish jon-u dilim.

Jahon adabiyotining mashhur vakili Remark qalamiga mansub «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q» asarini o'qib, bugungi tinch va osoyishta hayotimizga shukronalar aytdim. Asar qahramonlari aynan tengdoshim bo'lgani uchun ularning taqdiri meni o'ziga jalb etdi. Roman Nizom Komil tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgani uning yanada o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu asar insoniyat boshiga urush solgan mislsiz uqublatlar, yoshlar qalbidagi ertangi kunga bo'lgan ishonch, ularning beg'ubor tuyg'ulari haqida. Tengdoshlarimga nemis yozuvchisining mazkur romanini o'qib chiqishlarini tavsiya qilaman.

Shuningdek, yozuvchi Shukur Xolmirzayevning «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» asarini o'qib chiqsangiz, yaqinlaringiz, qarindosh-urug'laringiz qadrini yana bir karra anglaysiz.

Shunday jannatmakon yurtda yashab, o'z ustida tinmay izlanayotgan tengdoshlarimga ilm cho'qqilarini zabt etishlarini tilayman.

Sadoqat JALOLOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
2-umumta'lim maktabi o'quvchisi

YUZTA ASAR O'QIDIM

Muallimlarimning sa'y-harakatlari tufayli 2015-yil «Faol o'quvchi», 2016-yil «She'riyat shaydosi» tanlovlarida g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shu yil «Kamalak» yulduzlari festivalining xalq og'zaki ijodiyoti yo'nalishi bo'yicha ham viloyatda 1-o'rinni egalladim. Shuningdek, maktabimizda o'tkazilgan «Adabiyot haftaligi» kunlarida mutlaq g'olib bo'ldim.



Men maktab kutubxonasining eng faol a'zolaridanman. Hozirga qadar 150 ga yaqin jahon va o'zbek adabiyoti durdona asarlarini mutolaa qildim.

Yaqinda Mir Alisher bobomizning «Xamsa» asarini o'qib, olam-olam taassurot oldim. Kitobning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror»dir. Asar axloqiy-ta'limiy yo'nalishda bo'lganligi uchun har bir maqolada insonning kundalik hayoti bilan bog'liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy mavzulardagi qimmatli fikr-mulohazalar qalamga olingan.

Shuningdek, jahon adabiyoti tarixida muhim o'ringa ega bo'lgan ulug' nemis adibi Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» romanini ham o'qib chiqdim. Ushbu asar ilk bor chop etilganiga 240 yildan ziyod vaqt o'tdi. U insonlar qalbi va ma'naviyatini abadiy boyitib, jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Shahlobonu YO'LDOSHEVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 19-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

«WISE SCHOOL» – «AQLLI MAKTAB»

Yurtimizda bolajonlarning chuqur bilim olib, barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

cho'qqilarini zabt etish uchun barchasi muhayyo ekaniga amin bo'ldik. Aytish kerakki, bunday bilim maskanida bolalar yaxshi emas, faqat a'lo baholarga o'qishi shart.

«Wise school» xususiy maktabiga borganimizda, u yerdagi qulaylik va imkoniyatlarni ko'rib, o'quvchilarni

mahorati, biser tikish, xoreografiya kabi to'garaklar tashkil qilingan. Qolaversa, o'quvchilar shaxmat, tennis, suzish, futbol, basketbol, voleybol, karate kabi sport turlari bilan belgilangan soatlarda shug'ullanib boradi. Hatto, ta'lim maskanimizda o'quvchilarning sog'lom bo'lishlari uchun katta suv havzasi ham bor. Bolalarni faqat dars yoki sport bilan bog'lab qo'yamaymiz. Ular kun davomida maktab hovlisida o'zlarini erkin his etishlari uchun o'yingohlar tashkil qilingan. Eng qiziqarlisi, kutubxonamizda o'quvchilar istagan kitoblarini olib, mutolaa qilishlari mumkin, – deydi maktab mudirasi Zulfiya opa Shonazarova.

– O'quvchilar elektron doskalarda misollar, masalalar yechadi. Bu ular uchun albatta, yangilik bo'la oladi. Ingliz tili xonalari monitorlar bilan jihozlangan, – deydi boshlang'ich sinf oqituvchisi Yoqutxon opa Otajonova.

Bu maskanni orzular maskani deb atasak, adashmaymiz. Har bir o'g'il-qiz ushbu ta'lim dargohida chuqur bilim olib, ustozlari va ota-onasi ishonchini oqlaydi, deb umid qilamiz.

Nigora ABDUNAZAROVA



– «Wise school» – bolajonlar va ota-onalar orzu qilgandek yurtimizdagi eng ilg'or ta'lim dargohlaridan biri bo'lishiga ishonamiz. Maktabimiz ingliz tili va matematikani chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan. Ba'zi fanlarni chet davlatlaridan kelgan o'qituvchilar o'tadi. Maskanimizga 1-sinfidan 9-sinfgacha o'quvchilar qabul qilinadi. Bu yerda bolalar uch mahall issiq ovqat tanovul qilishlari, shifokor nazoratidan o'tishlari mumkin. Eng asosiysi, ular darsdan so'ng foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun mental-matematika, lego-konstruksiyasi, aktyorlik



Mana, yoz fasli ham nihoyasiga yetdi. Ta'til bizni ko'p quvontirdi, yayrab hordiq chiqardik. O'lkamizga kuz kirib kelar ekan, u barchamizni harakatga chorlayotgandek, go'yo.

REJALAR BIR TALAY

Jonajon maktabimiz bizga yana ilm eshiklarini ochibdi. Ushbu o'quv yili men kabi 10-sinfga qadam qo'ygan tengdoshlarim uchun alohida ahamiyatga ega. Boisi, Yurtboshimiz tashabbusi bilan o'tgan o'quv yilida umumta'lim maktablarida 10–11-sinflarning tashkil etilgani biz o'quvchilarga talay qulayliklar yaratildi. Quvonarlisi, qadrdon go'shada mehribon ustozlarimizdan saboq olishda davom etamiz. Shu bilan birga, o'zimizdan kichik sinf o'quvchilariga har tarafflama namuna bo'lishimiz kerakligini yodda tutamiz. Yangi o'quv yilidan 11-sinf bitiruvchilariga oltin va kumush medallarning berilishi bizni yanada faollikka undaydi.

Shunday ekan, kelajak rejalarim talaygina. Ishonamanki, ushbu o'quv yili maqsadlarimga erishish uchun qulay imkoniyatlarni tuhfa etadi.

Vazira MARDIYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi

O'qing va o'rganing. Jiddiy kitoblarni o'qing. Qolganini hayotning o'zi beradi.

Tong yulduzi

BARAKALLA, AZAMAT!

Kuzatuv

MUTOLAA SEHRI

Nazarimda, alla eshitib uyqusini topgan bolalar fursat o'tmayoq ertak tinglab, o'z dunyosiga qadam tashlaydi. Ezgulik bilan yovuzlik degan so'zni aynan tushunmasa-da, yaxshi va yomonni ajrata biladi. O'zini ijobiy qahramonlar o'rniga qo'ygisi keladi. Rag'batdan quvvat oladi. Bunda birgina so'z unga madad bo'ladi. Ishonch bilan bolaning fikrlarini qo'llab-quvvatlash uning intilishiga ko'mak beradi.

Yigirma yetti yildan buyon ingliz tilidan yoshlarga saboq beraman. Avval maktabda, keyin kollejdagi yillarni solishtiraman: o'qituvchi bilan o'quvchining orasidagi masofa qanday? Bu o'lchamning uzoq-yaqinligi tarbiyada ham, ilm egallashda ham katta ahamiyatga ega. Faol o'quvchilar hamisha o'z fikrini aytadi. Ammo tortinchoq bolalarni ko'proq eshitish ularning kayfiyatiga shunday ta'sir qiladiki, endi u butkul boshqa odamga aylanadi. Fikrini aytgan bola dadillikka birinchi qadamni tashlaydi. Tajribalarimdan shunga guvoh bo'lamanki, ko'p xayol surib, suhbatga kam qo'shiladigan bola bilan tillashsangiz, uning so'z zahirasi – fikrlash darajasi tengdoshlarinikidan keskin farq qiladi. Bunda o'qituvchi mahorat bilan o'quvchi qalbiga kirib borishi kerak. Aynan kitob muhokamasi – fikr, xulosa, qarashlarning xilma-xilligidagi jarayon ustoz va shogirdni ko'rinmas nur halqasi ichiga oladi, desam, to'g'ridir balki.

Bugun kitob mutolaasi yurtimizda katta bayramga aylandi. Buning mohiyatini bog'cha bolasidan tortib, bobo-yu momolar ham teran anglab yetdi. Hamisha ma'naviy rag'batning yonida moddiy qo'llab-quvvatlash tursa, inson yana ham intilishda davom etishiga guvoh bo'lib turibmiz. Kitob o'qiganga avtomashina! Tushga, ertakka o'xshaydi. Ammo ertak emasligidan qanot chiqarib uchging keladi. Navoiy g'azallarining bilimdoni bo'lgan navoiylik o'quvchiga, 600 ta kitob o'qib, 14-19 yoshlilar orasida avtomashinani qo'lga kiritgan samarqandlik qizga kimning havasi kelmaydi?! G'olibni tantanavor kutib olgan Narpay tumanidagi tadbiri telemekran orqali ko'rib, minglab o'quvchilar endi ularning ortidan ergashadi. Shu qizning otasi velosipedda yurib, to'rt qizini oliy ma'lumotli qilgan ekan. Aynan mana shu lavha – holat yana qancha qizlarning otasiga qizlari uchun imkoniyat yaratishiga o'mak bo'lgani, ayni haqiqat!

Yoshligimda avtobusda, navbat kutib turganda qo'llaridan kitobi tushmaydigan insonlarni ko'rganimda ularga havas bilan qarardim. Yillar o'tib, o'sha manzarani sog'inadigan, eslaydigan bo'lgandim. Bugun esa entikib eslaydigan o'sha damlardan ziyoda davrning kishisiga aylanganimdagi ayni holatimni qay so'z bilan ifodalashni bilmayman.

Qo'lga kitob tutgan bolalar bilan hamnafasligimdan faxrlanaman. Atrofga qarayman, kuzataman. Ularni savolga tutaman – bolalarning ertak eshitmagani yo'q! Ertak tinglagan bola uning davomini kutadi. Sekin-sekin sirlil olamga kirib boradi. U olam – kitoblar dunyosi. Mehr-u muhabbat, ilm-u ma'rifat, odamiylikning bebaho xazinasi unda mujassam!

Qo'lini kitobga uzatgan, mutolaa sehriga berilgan bola – senga hammaning havasi keladi...

Gulchehra SHOMALIKOVA,
Toshkent viloyati, Parkent agrosanoat kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

Samarqand viloyati yoshlar ittifoqi Tayloq tuman Kengashi tomonidan o'tkazilgan mazkur ko'rik-tanlovning 2-bosqichida 20-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Azamat Asrorov ham faol ishtirok etdi.

– Maktabimiz kutubxonasi kitoblarga boy. Kutubxonaga kirsam, boshqa olamga tushib qolgandek his etaman, o'zimni. Ayniqsa, asar qahramonlarining boshidan kechirayotgan sarguzashtlari menga ham begona emasdek, go'yo. Tanlovda berilgan savollar orqali olgan bilimlarimni yanada charxladim.

Keyingi bellashuvlarga puxta tayyorlanib, bundan-da yuksak natijalarni qo'lga kiritaman, – deydi suhbatdoshimiz.

– Azamat tanlovda III darajali diplom hamda Yoshlar ittifoqi tomonidan kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi. Bu esa boshqa bolalarga ham namuna bo'lishi, ularning ham kitobxonlikka qiziqib, «Yosh kitobxon» tanlovda qatnashishlariga turtki bo'lsa, ajabmas. Bellashuvdan maqsad o'quvchilarni turli yot g'oyalardan asrash, bolalarning kitobga

Kitob inson hayotida beqiyos ahamiyatga ega. Quvonarlisi, bugun o'quvchilarning mutolaaga bo'lgan mehri, qiziqishi asta-sekin ortib bormoqda. Ayniqsa, yurtimiz bo'ylab «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovida qatnashish istagini bildirayotgan o'quvchilar safi tobora kengaymoqda.

bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishdan iborat. Chunki yoshlar kelajagimiz poydevoridir. Poydevor mustahkam bo'lsagina, yurtimiz ertasi porloq bo'ladi. Porloq kelajakni esa Azamat singari faol va jonkuyar o'quvchilar timsolida ko'ramiz, – deydi maktabning yoshlar yetakchisi Xolida Orziyeva. Biz ham Azamatni boshlanajak o'quv yilida yangi marralarni zabt etishiga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



KALQARO TANLOV G'OLIBLARI

Marg'ilon shahridagi 10-bolalar musiqa va san'at maktabining bir guruh iste'dodli o'quvchilari yaqinda Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida «Nativorcheskom olimpe» nomli bolalar ko'rik-tanlovida faol ishtirok etdi.

Festivalda Mahliyo Mahmudova tasviriy san'at yo'nalishida o'zining milliy adras matosiga tushirilgan «Hayot» nomli badiiy kompozitsiyasi, «O'zbekistonda bahor» va «Tonggi nonushta» natyurmortlari, «Quyosh bilan uchrashuv» mavzusidagi grafikasi hamda xalq kulolchiligi yo'nalishidagi «Xalq siymosi» nomli ko'rgazmalari bilan, Diyoraxon Tursunaliyeva esa fortepiyanoda milliy va jahon kuylarini ijro etib, faxrli I darajali diplomni qo'lga kiritdi. Marg'ilonlik g'olib o'quvchilar joriy yilning noyabr oyida Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tadigan final bosqichiga taklif etildi. Ularga xalqaro nufuzli tanlovlarda omad-zafarlar tilaymiz.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

SIZ TA'TILNI QANDAY O'TKAZDINGIZ?

Nazarimda, har bir tengdoshim ta'til yakunida uch oylik vaqtini qanday o'tkazgani haqida o'ylab ko'rsa kerak. Axir yozni soz o'tkazgan bo'lsak, qanday yaxshi!



Men ham taassurotlarimni sizga so'zlab bermoqchiman. Ta'til kunlarining birida shahrimizdagi hayvonot bog'iga bordim. Bog'ning hududi keng va ko'rkam bo'lib, tabiatining o'zi kayfiyatini chog' qiladi. Bu yerdagi turli jonivorlar haqida esa kitoblarda o'qiganmiz. Ammo sher, tulki, maymun kabi hayvonlarni yaqindan ko'rish, xatti-harakatlarini kuzatish boshqacha bo'lar ekan. Qushlarning sayrashini aytmaymizmi?! Bog' hududida bir nechta ko'ngilochar attraksionlarning tashkil etilgani meni yanada quvontirdi. Ta'tilda miriqib dam olib, bilimlarimni mustahkamlaganimdan mamnun bo'ldim.

Dinara PAZILBEKOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
91-DIUM o'quvchisi

Free ticket


Aziz lived in a small village. On an unusual day he received a letter. When he opened there was a cinema ticket inside, there was also a note in the letter. It said «Here is a free ticket to the cinema on Saturday afternoon. Enjoy yourself».

However, there was no name with the letter, Aziz decided to telephone his friends to find out who sent him the present. First of all he called his father. «Dad, did you send me a cinema ticket?» «No» he replied, «Perhaps it is your brother». So that, Aziz called his brother but it was not his brother. Aziz phoned all his friends but none of

them had sent her the ticket. And he decided to phone the manager of the cinema. «My name is Aziz I received a free ticket for you, for your cinema. Did you send it to me?». «No» said manager. Aziz was puzzled, and he sends us a letter that can help him? Who sent him this letter. If you have any ideas send us your answer.

MAKE A QUESTION

- ...is that boy?
- my friend Temur.
- ...is the party?
On Sunday at 2 o'clock.
- ...is on the table?
- There is a pen.
- ...are you late?
- Because I miss my bus.
- ...is your book?
- It is in the bag.
- ... is your apple?
- The green one.



Ma'mura G'ULOMOVA

HAPPY GRAMMAR

Complete the sentences using adverbs.

- They laughed ... (happy).
- The cat ran (quick).
- He solved the problem (easy).
- She is always (beautiful) dressed.
- You are writing too (slow).



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

- She spoke (nice) about him.
- I think you are working (hard).
- He drives very (careful).

ENGLISH RIDDLES

We use it for sweet savory dishes. It is a large rounded orange-yellow fruit with a thick rind.

This kind of animal is a very large plant-eating mammal with trunk, long ivory tusks and large ears.





Dinora ABDULLAJONOVA

WORD GAME

Make words with these letters.



P E N



Ruxsora SAFAROVA,
the pupil of school № 326 in Olmazor district

OTHER WAYS TO SAY HAPPY BIRTHDAY

- Have a fabulous birthday.
- I hope you have a fantastic day.
- Have a great one.
- Many happy returns of the day!
- All the best on your special day.
- I wish you a wonderful birthday.
- Hope you have an enjoyable birthday.



Fariza KENJAEVA,
the pupil of school № 110 in Mirobod district

O'qituvchining butun faxri o'quvchilarida, o'zi sochgan urug'larning o'sishidir.



BIZ VATAN ERTASIMIZ

Shu Vatan erkasimiz, Biz Vatan ertasimiz. Istasak ne – muhayyo, Mo'jiza deysan, go'yo.

Ardoqlab o'stiradi, Otadek ulug' Vatan. Munosib farzand bo'lmoq, Burch erur bizgadir sha'n.

Elinur BAHRIDDINOVA,
Jizzax shahar Hamid Olimjon nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi



MEN HAM USTOZ BO'LAMAN

Charchamaydilar sira, Bizlarga bilim berib. Savodxon bo'lmoqdamiz, Qog'ozga harf terib, Mehribonim – ustozim.

Bizlarga xush yoqadi, Har kungi saboqlari. Xursand bo'lamiz, a'lo Baho qo'ygan chog'lari, Mehribonim – ustozim.

Men ham xuddi siz kabi, Ustoz bo'laman, albat. Chunki bu kasb egasi, Topgay ehtirom, hurmat, Mehribonim – ustozim.

Dilnur ERKINOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kasbi tumanidagi 11-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'quvchisi

HOVLIMIZGA KELIBSAN, UNSIZ!

Ijodkorning ilhomisan sen, Yomg'irlarning sog'inchisan, kuz. Sen yer yuzin aylanib yurib, Hovlimizga kelibsan, unsiz.

Sen yosharish nihoyasi, kuz, Kirib kelding yomg'irlar ila. Yig'ishtirdik mevalarni biz, Dasturxonlar rizq ila to'la.

Sen ko'ngilning firog'isan, kuz, Yosh qalblarga titroq solasan. Yer yuziga to'zg'itib xazon, Hovlimizda o'ylab qolasan!

Farangiz XO'JAMQULOVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Vatanimiz mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan «Eng ulug', eng aziz» an'anaviy respublika tanlovining g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

HAMKASBLARIMIZNI QUTLAYMIZ!



Tanlovda yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari bo'yicha «G'uncha» jurnali Bosh muharriri Dilfuza Shomalikova «Tuproq o'ynayotgan bola» tarbiyaviy qissasi uchun 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Quvonch bilan yana shuni ta'kidlash kerakki, shu kuni hamkasbimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolariga qabul qilindi.



Shuningdek, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi Murod Tillayev tomonidan yoshlarni harbiy sohaga qiziqtirish, milliy armiyamizni isloh etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar aks etgan «Temurbeklar maktabi» nomli badiiy qissasi 3-o'ringa loyiq ko'rildi. Shuni alohida aytish lozimki, qissa kitob holiga keltirilishidan avvalroq, gazetamiz sahifalarida chop etila boshlangani muxlislarimizni quvontirdi.

Biz g'olib hamkasblarimizni mukofot bilan samimiy qutlaymiz!

Tina o'tgan yili tayyorlov sinfiga borgan edi. Bu yil 1-sinfda o'qiy boshladi.

– Oyi, dedi u o'zini kiyintirib maktabga tayyorlayotgan Buko'n opaga, – men o'tgan yili o'qigandim... Bu yil ham o'qiymanmi?
– Albatta.
– Undan keyin hammi?
– Albatta, undan keyingi yili ham. Layli opangday bo'lguncha o'qiyverasan. Keyin ishlaysan. Tushundingmi?

U boshi bilan ma'qulladi. Biroq hech narsaga tushunmadi. Shunchaki boshini silkitib ma'qullagan bo'ldi-da, kiyinib maktabga jo'nadi. Maktabga borib, birinchi darsga kirishdi. Boyagi savoli xayolida aylanaverdi.

Muallima yozganlarini bolakaylarga tushuntirdi. Bir payt:

– Kimda savol bor? – deb o'quvchilardan so'radi.

– Menda savol bor, – deb Tina o'rnidan turdi. U boyadan beri shunday fursatni kutayotgandi. Muallima opa, men bultur ham o'qigan edim, endi bu yil ham o'qiymanmi?
– Albatta, – dedi ustoz.

– Bu yil birinchi sinfsizlar, kelgusi yilida ikkinchi sinf bo'lasizlar. Keyin uchinchi, to'rtinchi... bo'lib yuqorilab

boraverasizlar.

– Shunday qilib, qachongacha o'qiymanmi?

– Shuni ham bilmaysanmi? – deb yubordi bir necha o'quvchi.

Muallima bolalarni tinchlantirdi-da, keyin jilmayib bunday dedi:

– Har biringlar: shifokor, o'qituvchi, muhandis bo'lguncha o'qiyverasizlar.
– Bizmi? – deb so'radi



shifokor... o'qituvchi...

– Albatta, buning uchun o'qish kerak. Men ham sizlarday paytimda maktabga borganman.

Tong yulduzi

Murod TILLAYEV

«TEMURBEKLAR MAKTABI» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

ORZUNING TUG'ILISHI

Erkin kelajakda kim bo'lishi haqida shu kungacha jiddiy o'ylab ko'rmagan ekan. So'rganlarga vazir bo'laman, deb javob berardi. Ularning aksariyati «Yasha! Niyatingga yet!» deb qo'yishardi. Ba'zilar: «O'shanda bizlarni esdan chiqarib qo'yma», deb hazillashishardi. Ayrimlar esa, «Kim senga vazirlik kreslosini tayyorlab qo'yar ekan? Avval oliy o'quv yurtiga kirib o'qishing, keyin kichkina vazifalarda ishlashing kerak. Mansab pillapoyasidan asta-sekin ko'tarilishing lozim. Bir dumalab vazir bo'lib qolmay-san», deb kulishardi. Bobosining qahramonliklari, ushalmagan orzusi haqida eshitib, ilk bor ko'nglida «Men ham otamga, akamga o'xshab harbiy bo'lsam-mikan?!», degan istak uyg'ondi. Ammo bu to'g'risida o'sha paytda otasiga og'iz ochmad. Sababi, hali istagi qat'iy ahdga, qarorga aylanib ulgurishi kerak. Qolaversa, otasining yarasini yangilab qo'rganidan keyin maslahat so'rashga iymandi. «Yaxshisi, akamning ta'tilga kelishini kutaman. Undan maslahat so'rayman», dedi ichida.

Nihoyat, u orziqib kutgan kun ham yetib keldi. Akasi erta tongda kirib kelganida, Erkin dong qotib uxlab yotgan edi. Onasi:

– Tur, bolam, akang keldi! – deb uyg'otdi. Quvonchi xabarni eshitib, apil-tapil o'rnidan turdi-da, shoshib yuz-qo'lini yuvdi, televizor bor uyga kirdi, u yerda otasi bilan akasi nonushta qilib o'tirishgan ekan.

– Ha, kalla pishdimi, Erkinboy? – deb akasi u bilan quchoqlashib ko'rishdi.

– Vo, gavdangiz yanayam baquvvatlashibdi. Formangiz ham o'zingizga rosa yarashibdi, – dedi Erkin havas bilan.

(Davomi bor)

Sulaymon RISBOYEV, Qirg'iz bolalar yozuvchisi

Barcha bolalar birdan tinchlanib qolishi.

– Men muallima bo'lgim keladi, ustoz. O'qituvchi bo'lish uchun qachondan boshlab o'qish kerak?

– Albatta, bugundan boshlab o'qish kerak. Aytgand-chi, kim shifokor bo'lishni istaydi?

– Men, – dedi Suyunbek.

BIRINCHI KUN

– Demak, sen ham shifokor bo'lish uchun bugundan boshlab o'qish kerak.

– Men esa uchuvchi bo'lmoqchiman, – dedi Olmos. Unga ham ustozni yuqoridagi javobni berdi.

«Demak, o'qituvchi bo'lish uchun birinchi kundan boshlab o'qish kerak ekan. Bugun birinchi kun ekan-da», Tina uyiga yetib kelguncha shunday xayol qilib bordi.

Yozuvchining «Baxt izlagan bola» kitobidan Ravshan ISHOQOV tarjimai

OBOD MAHALLAMIZGA KELING

Biz Beshariq tumanidagi Abdurazzoq ota mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli «Shifokorlar ko'chasi»da yashaymiz. Mahallamizda 30 ga yaqin oila istiqomat qiladi. Qo'shnilar bir-biri bilan ahil va inoq. Ko'chamizni obod qilish uchun daraxtlar, manzarali ko'chatlar o'tqazyapmiz.



Mahallamiz raisi Jumanazar aka Sa'dullayev va Nargiza Yoqubova, Jumagul Xolmurodova, Rahima To'xtasheva kabi faol qo'shnilarimizning tashabbusi bilan shu yilning fevral oyida mahallamizga suv quvuri olib kelindi. Bu qulaylik barchamizni behad xushnud etdi.

Mustaqilligimizning 27 yilligi arafasida ko'chamiz asfalt qilinishi bayramga ajoyib

sovg'a bo'ldi. Mana endi tekis, ravon yo'llardan maktabimizga qatnaymiz. Prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlarga javoban chuqur bilim olishimiz, o'qib-izlanishimiz, o'z iqtidorimizni namoyon etishimiz, kelajakda ona Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishimiz kerak.

Iroda SAMIJONOVA, Muxlisa ABDUMAJIDOVA, Ma'suma ABDUPATTOYEVA, Mubina ABDUPATTOYEVA, Diyorbek QODIRALIYEV, Muxpirahim ABDUMAJIDOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 43- hamda 44-umumta'lim maktabi o'quvchilari

«SPORT-HAFTALIGI»

Ushbu haftalik doirasida poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 1-sonli BO'SMda tumandagi «Yangi Qo'yliq», «Tol-ariq», «Chinor», «Yuksalish», «Parvona», «Ziyonur», «Bilimdon», «Bayot», «Baratxo'ja», «Qo'yliq ota» mahallalarida istiqomat qiluvchi yoshlar o'rtasida «Biz – bir jamoamiz» shiori ostida sog'lomlashtirish tadbiri tashkil etildi.

Tadbir davomida sport maktabi tarbiyalanuvchilari tomonidan ko'rgazmali chiqishlar va maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilaridan bayram dasturi namoyish etildi.

SPORT BU - GO'ZALLIK!

zordan Akmal G'afurov 2- va Sergeli tumanidan Farrux Xo'janoyozov 3-o'rinni band etdi.

36-45 yoshli ayollar va erkaklar o'rtasidagi bahslarda yunusobodlik Viktoriya Xaliulina va G'ayrat Yusupov g'oliblikni qo'lga kiritdi.



TOSHKENT SHAHAR JISMONIY TARBIYA VA SPORT BOSHQARMASI

Erta tongdan «Paxtakor» markaziy o'yingohida ommaviy yugurish istagini bildirgan poytaxtliklar soni 1200 nafarga yetdi. 16-35 yoshli ayollar o'rtasida 1-o'rin chilonzorlik Yoqutxon Xolbekovaga nasib etdi. Shayxontohurlik Sofiya Abdurahimova hamda sergeliilik Dariya Safarovalar 2- va 3-o'rinlarni egallashdi. Ushbu yosh toifasidagi erkaklar o'rtasida G'olib Tohirjonov 1-, Chilon-

Toshkent viloyati, Nurafshon shahar Bolalar va o'smirlar sport maktabida taekvando WTF sport turi bo'yicha Mustaqilligimizning 27 yilligiga bag'ishlangan BO'SM birinchiligi bo'lib o'tdi.

YOSH TAEKVANDOCILAR

Musobaqaga Parkent tumani va Yangibozor qo'rg'oni bolalar va o'smirlar sport maktablarining sportchi o'quvchilari va nurafshonlik yosh atletlar qatnashdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra quyidagi o'quvchilar g'olib bo'lishdi:

18, 19, 21, 24 kg vazn toifasi bo'yicha 2008-2011-yillarda tug'ilgan sportchilar o'rtasida o'z vazn toifasida 1-o'rinni egallaganlar qatorida Bektemir tumanidagi 293-umumta'lim maktabi o'quvchisi Said Obidov, 17-umumta'lim maktabidan

Muhammadyusuf Maxamedov, Dinura O'ktamjonova (4-umumta'lim maktabi), Abror Tillayev (64-umumta'lim maktabi), Sarvinoz Mirzaparova (72-umumta'lim maktabi), Diyor O'Imasov (32-umumta'lim maktabi), Xushnud Hamidov (18-MTM), Behruz Mavlonov (48-umumta'lim maktabi), Abdulloh Mehmonaliev (12-MTM) va 1-umumta'lim maktabidan Laziz To'raxonovlar bor.

Muhammadamin Qo'ldoshev (17-umumta'lim maktabi), Ulug'bek Mavlonov (17-umumta'lim maktabi), Hojiakbar Hamidov (32-umumta'lim maktabi) va boshqalar 2-o'rinni egallashdi.

2002-2007-yillarda tug'ilgan taekvandochilar orasida 32-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Iskandar Mahmudov, Nafisa Qurbonova, Diyor Qudratov, Dilyora Mahmudova, 19-umumta'lim maktabidan Fazliddin Ochilov, 36-umumta'lim maktabidan Jasur Rahimov, 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shohruh Ahmadovlar birinchilikni egallashdi. Sportchilarning bu yutug'i bayram sovg'asi bo'ldi.

Sport bu - go'zallik. Haqiqatan ham, bu go'zalliklar barchasi «Sport haftaligi»da mujassam. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 27 yilligi arafasida tashkillashtirilgan «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostidagi tadbirlar barcha yurtdoshlarimizda katta qiziqish uyg'otdi.



Mirobod tumani vakili Shohida Shoyusupova hamda yakkasaroqlik Murod Ilhomov 46-55 yoshli chopqirlar o'rtasida mutlaq g'oliblardan bo'lishdi.

Shayxontohur tumanidan Gulya Abdusamatova hamda yakkasaroqlik Valeriy Hakimov eng yoshi katta yuguruvchilar orasida g'oliblar sifatida saralandi.

Nurbek QIDIRALIYEV, Muhayyo MAMATOVA

RELING, RASM CHIZAMIZ!



Abbos SHARIPOV,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi
56-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Shamshod OTANAZAROV,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Shohista PARDABOYEVA,
Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi
17-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAY. BOSH QOTIR!

	Viloyat	Taqinchoq hunarmandi			Ko'rkam yoritkich	Dorboz anjomi			
Metallni tortuvchi jism		Naf, foyda	Ko'rkam gul	Somsa turi				Janub mevasi	
Vaqtli nashr	Fransiya-dagi shahar		Qovun navi		Saylanuvchi	Ibn Sino vatani			
	Chopqir ot	Suv insho-oti	Dengiz say-yohi	Zargarlik toshi	Latifa qahramoni				
Juft urma soz	Sharif shahar		Boborahim ... (shoir)		Ayollar ismi	Dala oromgohi			
Mevazor bunyodkori		To-pishmoq	Tig'li qurol	Muqovali yozuv ash-yosi		O'zbek mumtoz sho-irasi			
	Og'ir atletika	Tezlik		Eng yuqori natija	Viloyat markazi				



Hamidulla ABDULLAYEV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
27-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Husnida OLIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 64-DIUM o'quvchisi



Shahzoda NURMATOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
281-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV